

QORAQALPOG'ISTONDA BAHORGI BUG'DOYNING EKISH MUDDATI VA MINERAL O'G'IT MEYORLARNING NAVLARI 1000 TA DON VAZNIGA TA'SIRI

Sabirova Shaxnoza Pamirovna

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining tadqiqotchi

sahnozasabirova6@gmail.com

ORCID ID; 0009-0004-7163-7153

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22725372>

Qabul qilindi: 4-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 11-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 12-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Maqolada ekish muddatlari va mineral o'g'it me'yorlarining bahorgi yumshoq bug'doyning "Janub gavhari" hamda "Parvoz" navlari 1000 ta don vazniga ta'siri bo'yicha 2023–2025 yillarda o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar davomida ekish muddatlaridan mart oyining III dekadasi hamda mineral o'g'it me'yorlaridan $N_{180}P_{90}K_{60}$ varianti qo'llanilganda 1000 ta don vazni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganligi isbotlangan. Azotli o'g'itlar me'yori $N_{210}P_{90}K_{60}$ gacha oshirilganda esa don yirikligining ma'lum darajada pasayishi kuzatilgan.

Kalit so'zlar:

bahorgi yumshoq bug'doy, Janub gavhari, Parvoz, ekish muddati, mineral o'g'itlar, azot, fosfor, kaliy, 1000 ta don vazni, hosildorlik.

KIRISH

Respublikamizda g'alla yetishtirish hajmini oshirish hamda don sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida agrotexnik tadbirlarni maqbullashtirish alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega [1]. Bahorgi yumshoq bug'doy yetishtirishda ekish muddatlari va mineral o'g'it me'yorlarini to'g'ri belgilash o'simliklarning rivojlanishi hamda hosildorlik elementlari shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [2]. Don sifatini va uning yirikligini belgilovchi asosiy fizik-mexanik ko'rsatkichlardan biri bu 1000 ta don vaznidir [3].

MAERIALLAR VA USLUBLAR

Ushbu tadqiqotda ekish muddatlari va mineral o'g'it me'yorlarining bahorgi yumshoq bug'doyning "Janub gavhari" va "Parvoz" navlari 1000 ta don vazniga ta'siri 2023–2025 yillar davomida o'rganildi. Tajribada B.A.Dospehov uslubiyati [6] bo'yicha ikkita ekish muddati (mart oyining III dekadasi va aprel oyining I dekadasi) hamda mineral o'g'it me'yorlarining 6 ta varianti ($N_{90}P_{90}K_{60}$, $N_{120}P_{90}K_{60}$, $N_{150}P_{90}K_{60}$, $N_{180}P_{90}K_{60}$, $N_{210}P_{90}K_{60}$) qiyosiy tahlil qilindi.

NATIJALAR NA MUNOZARA

Tajriba ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, ekish muddatlari va mineral o'g'it me'yorlari bug'doy donining shakllanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Ekish muddatlarining ta'sirida barcha me'yor va navlar kesimida mart oyining III dekadasi ekilgan o'simliklarda 1000 ta don vazni aprel oyining I dekadasi ekilganlarga nisbatan yuqori bo'ldi. Xususan, mart oyining III dekadasi "Janub gavhari" navida 1000 ta don vazni yillar bo'yicha o'rtacha 38,7–43,8 grammni tashkil etgan bo'lsa, aprel oyining I dekadasi ushbu ko'rsatkich 35,6–40,9 grammgacha pasaygan. "Parvoz" navida ham analogik holat kuzatilib, tegishli mart

oyida 39,6–44,2 gramm, aprel oyida esa 36,0–40,9 grammni tashkil etdi. Bu holat maqbul ekish muddatida o'simliklarning vegetatsiya davri davomiyligi yetarli bo'lishi hamda donning to'lishish davri mo'tadil havo haroratida kechishi bilan izohlanadi [4, 5]. Mineral o'g'it me'yorlarining ta'sirida o'g'it me'yorlarini $N_{180}P_{90}K_{60}$ variantigacha oshirib borilishi 1000 ta don vaznining mutanosib ravishda ortishiga olib keldi. Janub gavhari navida (mart oyining III dekadasida ekilganda) nazorat variantida 1000 ta don vazni o'rtacha 38,7 g bo'lgan bo'lsa, $N_{180}P_{90}K_{60}$ variantida maksimal ko'rsatkichga erishilib, 43,8 g ni tashkil etdi (ortish 5,1 g). Parvoz navida ham eng yuqori ko'rsatkich $N_{180}P_{90}K_{60}$ variantida qayd etilib, o'rtacha 44,2 g ni tashkil qildi (nazoratga nisbatan 4,6 g yuqori).

Biroq, azot o'g'itlari me'yori $N_{210}P_{90}K_{60}$ darajasigacha oshirilganda, ikkala nav va ikkala ekish muddatida ham 1000 ta don vaznining pasayishi kuzatildi. Mart oyining III dekadasida $N_{210}P_{90}K_{60}$ qo'llanilganda "Janub gavhari" navida o'rtacha vazn 40,2 g ga, "Parvoz" navida esa 41,2 g ga tushib qoldi. Bu azot o'g'itining ortiqcha dozasi vegetativ massaning me'yoridan ortiq rivojlanishiga hamda donning to'lishish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatganligidan dalolat beradi [2, 5].

1-jadval

Ekish muddatalri hamda mineral o'g'it me'yorlarining bahorgi yumshoq bug'doy navlari 1000 ta don vazniga ta'siri, g. 2023-2025 yy.

№	Ekish muddati	Navlar	Mineral o'g'it me'yorlari	2023	2024	2025	O'rtacha
1	Mart oyining III dekadasi	Janub gavhari	Nazorat	38,4	40,8	36,8	38,7
2			$N_{90}P_{90}K_{60}$	39,8	42,2	38,2	40,1
3			$N_{120}P_{90}K_{60}$	41,0	43,4	39,4	41,3
4			$N_{150}P_{90}K_{60}$	42,2	44,7	40,6	42,5
5			$N_{180}P_{90}K_{60}$	43,5	46,0	41,9	43,8
6			$N_{210}P_{90}K_{60}$	40,1	42,1	38,5	40,2
7		Parvoz	Nazorat	39,6	41,1	38,0	39,6
8			$N_{90}P_{90}K_{60}$	40,8	42,3	39,3	40,8
9			$N_{120}P_{90}K_{60}$	41,9	43,4	40,4	41,9
10			$N_{150}P_{90}K_{60}$	43,0	44,6	41,6	43,1
11			$N_{180}P_{90}K_{60}$	44,2	45,7	42,6	44,2
12			$N_{210}P_{90}K_{60}$	41,3	42,6	39,7	41,2
13	Aprel oyining I dekadasi	Janub gavhari	Nazorat	35,1	38,2	33,6	35,6
14			$N_{90}P_{90}K_{60}$	36,4	39,6	34,9	37,0
15			$N_{120}P_{90}K_{60}$	37,8	41,0	36,2	38,3
16			$N_{150}P_{90}K_{60}$	39,2	42,3	37,5	39,7
17			$N_{180}P_{90}K_{60}$	40,4	43,5	38,8	40,9
18			$N_{210}P_{90}K_{60}$	37,6	40,1	36,0	37,9
19		Parvoz	Nazorat	35,6	38,3	34,1	36,0
20			$N_{90}P_{90}K_{60}$	36,8	39,5	35,4	37,2
21			$N_{120}P_{90}K_{60}$	38,0	40,6	36,5	38,4
22			$N_{150}P_{90}K_{60}$	39,3	41,9	37,7	39,6
23			$N_{180}P_{90}K_{60}$	40,5	43,2	39,0	40,9
24			$N_{210}P_{90}K_{60}$	37,9	40,4	36,3	38,2

Tadqiqot yillari va navlar bo'yicha tahlil qilinganda, "Parvoz" navi 1000 ta don vazni ko'rsatkichi bo'yicha "Janub gavhari" naviga nisbatan bir oz yuqoriroq genetik salohiyatga egaligini ko'rsatdi. Yillar kesimida eng yuqori ko'rsatkichlar 2024 yilda kuzatilgan bo'lib, 2025 yilda biroz pasayish holati qayd etildi

XULOSA

Bahorgi yumshoq bug'doy navlarini mart oyining III dekadasiida ekish aprel oyining I dekadasiida ekishga nisbatan 1000 ta don vaznining sezilarli darajada ortishini ta'minlaydi. Mineral o'g'itlarning eng maqbul me'yori $N_{180}P_{90}K_{60}$ hisoblanib, ushbu variantda "Janub gavhari" navida 1000 ta don vazni 43,8 g, "Parvoz" navida esa 44,2 g ni tashkil etdi. Mineral o'g'itlar me'yorini $N_{210}P_{90}K_{60}$ gacha oshirish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydi va don yirikligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Atabayeva, H. N., & Xudaykulov, J. B. (2018). *O'simlikshunoslik* (Darslik). Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 240–258-b.
2. Xolikov, B. M., & Yormatova, D. Y. (2020). *Bahorgi don ekinlarini yetishtirish agrotexnikasi va uning don sifatiga ta'siri*. Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 112–125-b.
3. Mavlonov, B. S., & Boboyev, F. G. (2022). Ekish muddatlari va mineral o'g'it me'yorlarining bahorgi bug'doy navlarining hosildorlik elementlariga ta'siri. *Agro ilm - O'zbekiston qishloq xo'jaligi*, 3(79), 18–21-b.
4. Siddiqov, R. I., & Egamberdiyev, O. R. (2021). Bahorgi yumshoq bug'doy yetishtirishda maqbul ekish muddatlari va mineral o'g'it me'yorlarini belgilash. *Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit*, 2(4), 45–49-b.
5. Doshchanov, M. B., & Allanazarov, Q. A. (2023). Sug'oriladigan maydonlarda bahorgi bug'doyning "Janub gavhari" va "Parvoz" navlaridan yuqori va sifatli don hosili olish agrotexnikasi. *O'zbekiston biologiya jurnali*, 5, 34–38-b.
6. Dospheov, B. A. (1985). *Metodika polevogo opyta (s osnovami staticheskoy obrabotki rezul'tatov issledovaniy)*. Moskva: Agropromizdat, 351 s.

Abstract.

This article presents the results of scientific research conducted in 2023–2025 on the influence of sowing dates and mineral fertilizer rates on the 1000-grain weight of spring soft wheat varieties "Janub gavhari" and "Parvoz". The study proved that the highest 1000-grain weight indicators were achieved when sowing in the third decade of March using mineral fertilizers at a rate of $N_{180}P_{90}K_{60}$. However, increasing nitrogen fertilizer application to $N_{210}P_{90}K_{60}$ led to a slight decrease in grain weight.

Keywords:

spring soft wheat, Janub gavhari, Parvoz, sowing date, mineral fertilizers, nitrogen, phosphorus, potassium, 1000-grain weight, yield.

Аннотация.

В данной статье представлены результаты научно-исследовательских работ, проведенных в 2023–2025 гг. по изучению влияния сроков сева и норм минеральных удобрений на массу 1000 зерен сортов яровой мягкой пшеницы «Джануб гавhari» и «Парвоз». В ходе исследований установлено, что наиболее высокие показатели массы 1000 зерен достигаются при посеве в III декаде марта и применении минеральных удобрений в норме $N_{180}P_{90}K_{60}$. При увеличении нормы азотных удобрений до $N_{210}P_{90}K_{60}$ отмечено некоторое снижение крупности зерна.

Ключевые слова:

яровая мягкая пшеница, "Южная жемчужина," "Парвоз," сроки посева, азотные удобрения, сухая масса, фазы вегетации.